

GLOBAL DEMOKRATIK JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING MILLIY VA MA'NAVIY OMILLARI

Xamdamov Erkin Ibodullayevich

"ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oily ta'lim tashkiloti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tel.: +99899 517-34-87

e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com

Orcid: 0009-0003-0761-964X

II-bosqich magstranti

Narbayeva Sofiya Murod qizi

Annotatsiya: Mazkur maqola jahonda va O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlar jarayoni, jamiyat hayotining barcha sohalari, millatlar aro munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga keng istiqbollarni ochib berada. Global demokratik jarayonlar o'z navbatida bugungi rivojlanish taraqqiyotining o'ziga xos farqli jihatlaridan biri bo'lgan – globallashuv jarayonini jiddat bilan o'sib borishiga, uning ijobiy va salbiy jihatlari milliy rivojlanish yo'lidan ketayotgan turli mamlakatlar hayotining sohalarida keng ko'lamda namoyon bo'lishi. Tadqiqotda insoniyatni uzoq davom etayotgan taraqqiyotini tarixiy-ijtimoiy birligi sifatida shakllangan millat ham globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy ta'siriga tushib qolishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Global, sun'iy intellekt, Globallashuv salbiy va ijobiy tomonlari.*

Kirish: "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983-yili "Garvard biznesrevyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini globallashuv deb atagan)¹. Bu termini ko'plab olimlar o'z qarashlari va asarlarida ta'riflab bergan bo'lsada, J.Stiglits, F.Fukuyama, Z.Bjezinskiy kabi olimlar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayon sifatida qarashsa, M.Sirvel, D.King, V.Nikonovlar siyosat va davlatchilik jarayoni bilan tushuntirishadi. O'zbek olimlari ham globallashuv va uning turli sohalarga ta'sirlari haqida o'z g'oya va qarashlarini ilgari surgan².

Darhaqiqat hozirgi davrda globallashuv jarayonlari ijobiy jihatlari eng ilg'or, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishning texnik qayta jihozlash,

¹ https://www.google.com/search?q=globallashuv+atamasi+kim+fanga+kiritgan&sca_esv= =gws-wiz-serp

² M.Xolbekov. Adabiyot va globallashuv// "Tafakkur", 4, 2004; A.Qodirov An'anviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi. -T.: TDYUI, 2006: A.Ochigliyev Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. -T.: "Muhammarr", 2009; B.Umarov Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy, va ma'naviy jihatlari. -T.: "Ma'naviyat", 2006; U.Saidov Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. -T.: "Akademiya", 2008.

tezkor zamonaviy komunikatsiya, IT, sun’iy intellekt va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi va ilmiy, texnik hamda inson hayoti uchun zarur axborotni yig‘ish va taqsimlash milliy madaniyatlarning bir-biriga ta’sir etib, ularni mazmunan boyitishga, milliy dasturlarni xalqaro mezonlar asosida amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheksiz imkoniyatlarga yo‘l ochilmoqda.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari jadal rivojlantirilib, barcha sohalarda tatbiq etilmoqda. Bularning natijasida 2024 yil avgustda o‘tgan davrida raqamli xizmatlar hajmi 21 trillion so‘mdan oshganligi, bu ko‘rsatgich yil yakuni bilan 43 trillion so‘mga yetishi, sohada 367 million dollarlik xizmatlar eksport qilinganligi. IT-park rezidentlari 577 taga ko‘payib, 2 mingtadan oshdi. Ularda ishlayotgan yoshlar soni esa 32 mingtaga yetganligi. Bu sog‘liqni saqlash, energetika, transport, ta’lim, qishloq va suv xo‘jaligi, qurilish kabi sohalarda 100 dan ortiq raqamlashtirish loyihalar amalga oshirilganligi misol bo‘la oladi. Jahonda har bir sohaga sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelishi, bu borada yurtimizda ham qator loyihalar boshlanganligi jumladan, “MyID” va “UzFace” dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchalari va to‘lov tizimlarida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratilganligini ko‘rshimiz mumkin. “O‘zbekkosmos” sun’iy intellektni qo‘llab, 43 mingga yaqin yer qa’ridan noqonuniy foydalanish va ruxsatsiz qurilish holatlarini aniqladi³.

Bular o‘z navbatida mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuviga, jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlarini faollashuviga xizmat qilmoqda. Globallashuvning salbiy jihatlari esa, milliy madaniyatlar va qadriyatlarning yemirilishi, insonlarning milliy ideallari, qahramonlarning o‘zgarishi, yoshlar ta‘rbiyasi bilan bog‘liq salbiy holatlarda, an‘anaviy jamiyatlarda yashayotgan aholi o‘rtasida, xususan ko‘p millatli tarkibga ega aholi o‘rtasida milliy, diniy, g‘oyaviy negizga ega qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirish orqali milliy xavfsizlikka tahdid sifatida siyosiy maqsadlarni amalga oshirish shakllarida namoyon bo‘lmoqda.

Ommaviy madaniyat olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Ommaviy madaniyat – xalq madaniyati, urf-odatlari, marosimlari, san’ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha.
2. Ommaviy madaniyat OAV rivoji bilan bog‘liq hodisa.
3. Ommaviy ishlab chiqarish, “ko‘ngilochar industriya” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo‘ljallangan madaniyatning siyqalashtirilgan namunalari ko‘rinishidagi salbiy hodisa⁴. Darhaqiqat bu “madaniyat” Yangi O‘zbekiston uchun hech qachon kerak emas. Bu yo‘lda 37 milliondan ortiq yashayotgan yurtning har bir fuqarosi qarshi kurashmog‘i shart.

³ <https://president.uz/oz/lists/view/7464>

⁴ <https://oyina.uz/uz/teahause/2156>

Jamiyat demokratlashuv sharoitida millat va uning barcha milliy xususiyatlarini bunday xurujlardan himoya qilish nafaqat milliy manfaat, balki umummilliy manfaatlarning, milliy va davlat xavfsizligini ta`minlashning ustuvor vazifasiga aylandi. S.Otamurodov aytganidek "...millatni asrash uchun milliy ma`naviyatini asrash globallashuvning avj olish sharoitidagi o`ta muhim milliy manfaatlarga molik vazifaga aylanib bormoqda"⁵.

Jamiyat demokratlashuvi sharoitida globallashuvning dunyo ijtimoiy rivojlanishning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo`lmoqda.

1. Insoniyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan integratsiya jarayonlari oqibatida davlatlararo bog`liqlikni kuchayishi.
2. Milliy munosabatlarning bir tomondan, universallashuvi, ikkinchi tomondan esa, milliy identifikatsiyaga intilishi.
3. Dunyoning ko`p qutbga bo`linishi oqibatida kuch markazlari o`rtasidagi nisbatni o`zgarishi bilan bog`liq tendensiyalarni kuchayishi.
4. Xom ashyo, yoqilg`i, energiya va suv resurslarini cheklanishi va muqobil variantlarni izlash bilan bog`liq fundamental va amaliy tadqiqotlarni ko`payishi.
5. Milliy, mintaqaviy, dunyoviy mojarolar orasida bog`liqlikni paydo bo`lishi.
6. Milliy, mintaqaviy, global xavfsizlikka diniy ekstremizm, millatchilik, etnik murosasizlik, radikalizm, odam savdosi kabi tahdidlarning mavjudligi.
7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarni jadal rivojlanishi oqibatida dunyoda yagona axborot mediya makonini shakllanishini ko`rsatishimiz mumkin.

Ijtimoiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini to`liq anglash uchun insoniyat tamadduni asosini tashkil etadigan madaniyat va uning bosh o`zagi bo`lgan ma`naviy-axloqiy qadriyatlarning taraqqiyotdagi o`rni va ahamiyatini tadqiq etish lozim. Afsuski, bu muhim yo`nalish ko`p hollarda e`tibordan chetda qoladi. Boshqacha aytganda, madaniyat, ma`naviy-axloqiy qadriyatlar iqtisodiy taraqqiyotning e`tiborli qismi bo`lsa-da, ammo unga ortiqcha yuk sifatida yondashilib, katta xatoga yo`l qo`yiladi.

Globallashuv insoniyat hayotining barcha sohalarida mavjud farq va tafovutlarning yo`qolib, umumiylar mezonlarning shakllanishi ya`ni turfa xillikka ega dunyoni bir xillik ko`rinishiga o`tkazilish jarayonidir. Bu jarayonning maqsadi esa, butun yer yuzini yagona markazdan boshqarish imkoniyatini vujudga keltirish hisoblanadi.

Har qanday tamaddun madaniyat bilan bog`liq va madaniyat rivoji, xususan, ma`naviy-ruhiy madaniyat rivoji uchun muhit, shart-sharoit yaratadi. Madaniyat

⁵ S.Otamurodov Globallashuv va milliy-ma`naviy xavfsizlik. -T.: "O`zbekiston", 2013. B.4.

ma`naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hodisa sifatida, odamning, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning inshoniylashuvi darajasini belgilaydi.

“Agar madaniy dunyoni barpo etishda qadriyatlarning muayyan toifasi e’tiborsiz qoldirilsa, - deb yozadi N.Chavchavadze – madaniyat muqarrar kemtik bo‘lib qoladi, yani moddiy ashyoviy qadriyatlar e’tiborsiz qoldirilsa, u o‘z mustahkamligini yo‘qotadi yoki unda ma’naviy qadriyatlarning muayyan toifasi inkor etilsa, insoniylik darjasи past bo‘ladi. Mazkur turdagи madaniyatga ega bo‘lgan jamiyatlarda ma’naviyatsizlik hukm suradi”⁶. Buning natijasida xalq, millat, jamiyat va oxir oqibat davlat barbod bo‘ladi.

Jamiyat demokratlashuv jarayonida millatlarning ma’naviy qadriyatlарини tiklash, turli etnik guruuhlar o‘rtasida milliy kelishuvga erishish ko‘p millatli davlatlarda siyosiy barqarorlik ta`minlashning muhim omili hisoblanadi.

Jamiyat demokratlashuvida millatlar taraqqiyoti asosini bilim tashkil etadi. Yangi jamiyatda kapital emas, aynan bilim asosiy boylik sifatida talqin etiladi. Eng muhimi so‘ngi yillarda bilimlar ko‘lami va unga munosabat keskin o‘zgardi. Bu axborotlashgan jamiyat, zamonaviy kashfiyotlar, axborot oqimining kuchayishi va yangi axborot texnologiyalari paydo bo‘lishi natijasida barcha sohadagi ijtimoiy taraqqiyot sur`atlarning jadal o‘sishi hamda rivojlanishiga olib keldi. Bu mulohazalar bir qarashda globallashuv jarayonlariga aloqasi yo‘qdek tuyulsa-da, ammo globallashuvning hozirgi kundagi o‘rni, u keltirib chiqarayotgan ziddiyatlarni to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

So‘ngi paytlarda bir qancha olimlar yaqin kelajakda sifat jihatdan global axborot tizimining shakllanishi, ommaviy tus olgan aholi migratsiyasi, diniy mojarolar-ziddiyatlar, ommaviy madaniyat kabi hodisalar ma`lum ma`noda butunlay yangi inson va jamiyatning global shakli – “megajamiyat”, “megamadaniyat”, “superetnos”, “radikal”, “global insonni” shakllantirmoqda, degan fikr va qarashlarni ilgari surishmoqda.

Bu masalada birinchilardan bo‘lib Arxun Appadurai shunday deydi: “Bugungi kundagi global munosabatlarning asosiy muammosi madaniy gomogenizatsiya bilan madaniy geterigenizatsiya o‘rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvidir”⁷.

Insoniyatning buguni va kelajagi haqida fikr yuritayotgan olimlar ichida madaniyatlar o‘rtasidagi farqni mutlaqlashtirib, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etib bo‘lmasligi haqida gapirayotganlar ham bor. Xususan, S.Xantington, tamaddunlar o‘rtasidagi kurash kundan-kun avj olishi, yagona insoniyat haqida gap

⁶ Chavchavadze N.Z. Fenomen bezduxovnosti. Tbilisi, 1991. -B.24.

⁷ Appadurai A. Dsjuncture and difference in the global cultural economy. // Robertson R. White K.E. (Ed.) Globalisation. Critical conceptin sociologi. Volume 1, London, 2003.P. 251-264.

bo‘lishi mumkin emasligi va XXI asr tamaddunlar o‘rtasidagi to‘qnashuv asri bo‘lishi haqidagi fikrni ilgari suradi”⁸.

S.Xantington har qanday tamaddunning o‘zagini din din tashkil etishi va diniy e`tiqod xalqlar ongida eng chuqur ildiz otgan, turg‘un ekani haqidagi g‘oyaga tayanadi. Shu asosida u navbatdagi jahon urushi, agar u sodir bo‘lsa, asosan, diniy e`tiqodlardagi ziddiyatlar zaminidagi urush bo‘lishini bashorat qiladi. F.X.Kessidi Xangtinton fikriga to‘liq qo‘silmasada, shunday fikrlaydi: “Fikrimizcha, - yozadi u, - agar urush sodir bo‘lsa, u etnik urush bo‘ladi. Har holda hozirgi lokal to‘qnashuvlar, harbiy harakatlar va ziddiyatlarning aksariyat ko‘pchiligi etnik xususiyatga ega. Aks holda, jahonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlari borayotgan, jahon kommunikatsiya tizimi shakllanayotga, atrof muhitni asrash bo‘yicha hamkorlikda harakatlar kengaygan bir sharoitda etnik va separatizm tendensiyalarining kuchayishini (masalan Basklar mamlakatida, tog‘li qorabog‘, Abxaziya, checheniston, Kurdiston va boshqa hududlarda) tushuntirish qiyin bo‘ladi”⁹.

Shuningdek, mutaxassislar fikricha, har bir madaniyat keng talqinda Sharq va G‘arb madaniyatlar o‘zining alohida genotipiga ega, shunga muvofiq ularning ichki rivojlanish mantig‘i mavjud.

Hozirda kechayotgan jarayonlar global kishilik hamjamiyatini shakllantirayotgan va sayyorada yashayotgan mutlaq ko‘pchilik asta-sekin hayotni tashkil etishning asosiy tamoyillari haqida umumiy qarashni ishlab chiqayotgan bo‘lsada, jahon hamjamiyati hayotining barcha sohalarini qamrab olgan ziddiyatlar mantiqan insoniyat ongli ravishda o‘z halokati tomon borayotgani haqidagi fikrlar turli bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Bu borada J.Stiglitz shunday yozadi: “Agar globallashuv avvalgidek amalga oshiriladigan bo‘lsa, ... u taraqqiyotga yordam berish u yoqda tursin, bundan keyin ham qashshoqlik va beqarorlikni yuzaga keltiraveradi”¹⁰.

Globallashuv subekti masalasida B.Umarov bu shunday yozadi: “Globallashuv xalqaro munosabatlarning an’anaviy ishtirokchisi – davlatlardan tashqari umumdunyoviy jarayonlarga bevosita ta`sir etuvchi, yangi subektlarni – Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, “katta sakizlik” (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, Italiya, Rossiya), mintaqaviy tashkilotlar (Yevropa hamjamiyati, ACEAN va hokazo), transmilliy korporatsiyalar (TMK), nodavlat tashkilotlar (“yashillar” harakati kabi), B.Geyts singari badavlat kishilarni siyosat maydoniga olib chiqdi”¹¹.

⁸ Хантингтон С. Столкновение цивилизация и преобразование мирового порядка// Новая постиндустриальная волна на Западе. -М., 1999.

⁹ Кессиди Ф.Х. Глобализация и культурная идентичность // Вопросы философии 1, 2003.

¹⁰ Stiglitz J.E. Globalization and the Discontents New York W.W.Norton @ Co., 2002. -P.248.

¹¹ Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy, va ma`naviy jihatlari. -T.: “Ma`naviyat”, 2006. -B.11.

XULOSA. Globallashuvning millatlararo munosabatlarni taraqqiy etishiga ijobiy ta'sirlarini inkor etmagan holda uning salbiy oqibatlaridan ko‘p millatli davlatlar o‘z hududida yashayotgan etnik birliklarning milliy va madaniy o‘ziga xosligini saqlash va rivojlantirish, ularni eng oliv janob g‘oyalarini milliy g‘oya tamoyillari sifatida qaror toptirish negizida jamiyat hayotida milliy birdamlikni vujudga keltirish hamda milliy mintalitet xususiyatlarini himoya qilish orqaligina o‘z davlat xavfsizligini ta‘minlashi mumkin. Shu bois, maskur hayat sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi sharoitida yuzaga kelayotgan imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, millatlararo munosabatlarga tahdid solishi mumkin bo‘lgan xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash va zararsizlantirishda jamiyatning tahdid, bardoshlilik salohiyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston jamiyati demokratlashuvining hozirgi bosqichida o‘ta murakkab va serqirra ko‘rinishlarda namoyon bo‘layotgan globallashuv va u bilan bog‘liq voqealarning yangi qirralari namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S.Otamurodov Globallashuv va milliy-ma`naviy xavfsizlik. -T.: “O‘zbekiston”, 2013.
2. M.Xolbekov. Adabiyot va globallashuv// “Tafakkur”, 4, 2004.
3. A.Qodirov An`anviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi. -T.: TDYUI, 2006.
4. A.Ochilidiyev Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. -T.: “Muharrir”, 2009.
5. B.Umarov Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy, va ma`naviy jihatlari. -T.: “Ma`naviyat”, 2006.
6. U.Saidov Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. -T.: “Akademiya”, 2008.
7. Chavchavadze N.Z. Fenomen bezduxovnosti. Tbilisi, 1991.
8. Appadurai A. Dsjuncture and difference in the global cultural economy. // Robertson R. White K.E. (Ed.) Globalisation. Critical conceptin socilogi. Volume 1, London, 2003.P. 251-264.
9. Хантингтон С. Столкновение цивилизация и преобразование мирового порядка// Новая постиндустриальная волна на Западе. -М., 1999.
- 10.Кессиди Ф.Х. Глобализация и культурная идентичность // Вопросыфилософии 1, 2003.

11. Stiglitz J.E. Globalization and the Discontents New York W.W.Norton & Co., 2002.
12. Xamdamov, E. (2024). Ziyo go ‘kalpning “to ‘g ‘ri yo ‘l” asarida ijtimoiy va siyosiy tamoyillar. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 43-45.
13. https://www.google.com/search?q=globallashuv+atamasi+kim+fanga+kiritgan&ca_esv=gws-wiz-serp
14. <https://president.uz/oz/lists/view/7464>
15. <https://oyina.uz/uz/teahause/2156>